

## MURODJON MANSUROVNING “JUDOLIK DIYORI” ROMANIDA AYOLLAR RUHIYATI TASVIRINING BADIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

**Barotova Sevara,**

*Farg‘ona davlat universiteti magistranti*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada Murodjon Mansurovning “Judolik diyori” romanida ayollar ruhiyatining badiiy tasvirlanish xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda romandagi Asol xola, Salomxon aya, Huri xola, Marg‘uba, Mahfuza, Asal opa kabi ayol obrazlarining ichki kechinmalari, ruhiy ziddiyatlari, ma’naviy-axloqiy qiyofasi hamda ijtimoiy va oilaviy muhit bilan bog‘liq psixologik holatlari o‘rganiladi. Maqolada badiiy psixologizm, ichki monolog, psixologik portret, dialog, badiiy detal, ramziy ifoda va ayollar nutqining obraz ruhiyatini ochishdagi o‘rni yoritiladi. Ayniqsa, “arvohkapalak”, “qorator” kabi detallar ayol qalbidagi iztirob, yolg‘izlik, o‘tmish xotirasi, ruhiy sinish va ichki drammatizmni ifodalovchi psixopoetik vosita sifatida talqin qilinadi.

**Kalit so‘zlar:** “Judolik diyori”, ayol ruhiyati, badiiy psixologizm, psixologik tasvir, ayol obrazi, badiiy detal, ichki monolog, nutq, ma’naviy-axloqiy masala.

**Аннотация.** данной статье анализируются художественно-психологические особенности изображения женской психологии в романе Муроджона Мансурова «Край разлуки» (Judolik diyori). В исследовании рассматриваются внутренние переживания, психологические противоречия, нравственно-этический мир, а также эмоциональные состояния женских образов, связанные с социальной и семейной средой. В частности, анализируются образы Асол хола, Саломхон ая, Хури хола, Маргубы, Махфузы, Асал опа. Особое внимание уделяется роли художественного психологизма, внутреннего монолога, психологического портрета, диалога, художественной детали, символического выражения и женской речи в раскрытии духовного мира героинь. Такие детали, как «арвохкапалак» и «қоратор», интерпретируются как психопоэтические средства, выражающие страдание, одиночество, память о прошлом, душевный надлом и внутренний драматизм женского образа.

**Ключевые слова:** «Judolik diyori», женская психология, художественный психологизм, психологическое изображение, женский образ, художественная деталь, внутренний монолог, речь, нравственно-этические проблемы.

**Abstract.** This article analyzes the artistic and psychological features of the representation of women’s psyche in Murodjon Mansurov’s novel Judolik diyori. The study examines the inner experiences, psychological conflicts, moral and ethical world, and social and family-related emotional states of female characters such as Asol xola, Salomxon aya, Huri xola, Marg‘uba, Mahfuza, and Asal opa. Special attention is paid to the role of artistic psychologism, inner monologue, psychological portrait, dialogue, artistic detail, symbolic expression, and women’s speech in revealing the spiritual world of the characters. In particular, such details as “arvohkapalak” and “qorator” are interpreted as psychopoetic devices that express women’s suffering, loneliness, memories of the past, psychological breakdown, and inner dramatism.

**Keywords:** Judolik diyori, women’s psyche, artistic psychologism, psychological representation, female character, artistic detail, inner monologue, speech, moral and ethical issues.

**Kirish.** Zamonaviy o‘zbek adabiyotshunosligida inson ruhiyatini badiiy talqin qilish, qahramonning ichki olami, ruhiy kechinmalari, ma’naviy-axloqiy qarashlari va ijtimoiy muhit bilan munosabatini tahlil qilish muhim ilmiy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Badiiy adabiyot inson qalbining eng nozik qatlamlarini, uning iztiroblari, orzu-intilishlari, qo‘rquvlari, umidlari va ichki ziddiyatlarini obrazlar orqali ifodalaydi. Shu jihatdan badiiy

psixologizm adabiy asarning g'oyaviy-estetik mazmunini chuqur anglashda muhim nazariy tushuncha sanaladi.

**Adabiyotlar tahlili.** Badiiy psixologizm tushunchasi adabiyotshunoslikda qahramon ruhiyati, ong va hissiyotlar oqimi, ichki ziddiyatlar, psixologik holat va ruhiy jarayonlarning badiiy ifodalanishi bilan bog'liq holda o'rganiladi. L.Ya. Ginzburg psixologik proza haqida fikr yuritar ekan, inson ichki dunyosini ochishda kundalik, xotira, maktub, avtobiografik bayon va ichki kuzatuv kabi shakllarning muhimligini ta'kidlaydi.[1] A.B. Yesin esa rus klassik adabiyoti misolida psixologizmning qahramon xarakterini chuqurlashtirish, ichki konfliktni kuchaytirish va badiiy matnning ta'sirchanligini oshirishdagi rolini alohida ko'rsatadi.[2] Ushbu nazariy qarashlar o'zbek nasrida ham inson ruhiyati, xususan, ayol qalbining badiiy tasvirini tahlil qilishda muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

O'zbek adabiyotida ayol obrazi qadimdan muhim o'rin egallab kelgan. Xalq og'zaki ijodi, mumtoz adabiyot, jadid nasri va zamonaviy adabiyotda ayol obrazi turli qirralarda talqin qilingan. Mumtoz adabiyotda ayol ko'pincha go'zallik, vafo, sadoqat, muhabbat va ma'naviy poklik timsoli sifatida tasvirlangan bo'lsa, jadid adabiyotida u ma'rifat, ijtimoiy uyg'onish, oila va jamiyat taraqqiyoti bilan bog'liq masalalar doirasida yoritildi. Zamonaviy o'zbek nasrida esa ayol obrazi murakkab psixologik xarakter, ichki ziddiyatlarga ega bo'lgan shaxs, jamiyat va taqdir bosimi ostida o'z ruhiy bardoshini namoyon etuvchi obraz sifatida tasvirlanmoqda.

Murodjon Mansurovning "Judolik diyori" romani ana shu jihatdan e'tiborga molik asarlardan biridir. Romanda ayol obrazlari orqali ayriliq, yo'qotish, onalik iztirobi, sabr, matonat, yolg'izlik, ijtimoiy bosim, befarzandlik, oila va jamiyat munosabatlari kabi masalalar badiiy ifodasini topgan. Asol xola, Salomxon aya, Huri xola, Marg'uba, Mahfuza, Asal opa kabi obrazlar ruhiyatida kechadigan jarayonlar asarning g'oyaviy-estetik mohiyatini belgilaydi. Mazkur obrazlar orqali muallif ayol qalbining fojaviy, dramatik va ma'naviy qatlamlarini ochib beradi.

Ushbu maqolaning maqsadi Murodjon Mansurovning "Judolik diyori" romanida ayollar ruhiyatining badiiy-psixologik tasvirini tahlil qilish, ayol obrazlari ruhiy olamini ochishda qo'llangan tasvir vositalarini aniqlash hamda muallifning obraz yaratishdagi individual mahoratini yoritishdan iborat.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Maqolada badiiy matnni adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan tahlil qilishga asoslangan metodlardan foydalanildi. Tadqiqotning nazariy asosini badiiy psixologizm, obraz poetikasi, psixologik portret, ichki monolog, badiiy detal va nutqiy tavsif haqidagi qarashlar tashkil etdi. Izzat Sulton, Dilmurod Quronov, Ozod Sharafiddinov, Umarali Normatov kabi o'zbek adabiyotshunoslarining badiiy obraz, xarakter va yozuvchi mahoratiga oid ilmiy qarashlari tadqiqot uchun metodologik tayanch bo'lib xizmat qildi.[3]

Tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi:

Birinchidan, **psixologik tahlil metodi** asosida ayol obrazlarining ichki kechinmalari, ruhiy ziddiyatlari, iztirob, sabr, umid, yolg'izlik va ma'naviy bardoshlilik holatlari o'rganildi. Bu metod Asol xola, Salomxon aya, Huri xola, Marg'uba, Mahfuza, Asal opa kabi obrazlarning ichki olamini ochishda muhim ahamiyat kasb etdi.

Ikkinchidan, **badiiy-estetik tahlil metodi** orqali muallifning ayol ruhiyatini yoritishda qo'llagan tasvir vositalari, obrazlarning g'oyaviy-estetik vazifasi, psixologik holatning badiiy ta'sirchanlikka xizmat qilishi aniqlandi.

Uchinchidan, **struktural-semantik yondashuv** asosida romandagi badiiy detallar, ramziy obrazlar va nutqiy vositalarning ma'no qatlamlari tahlil qilindi. Xususan, "arvohkapalak" va "qorator" detallarining ayol ruhiyatini ochishdagi psixopoetik vazifasi o'rganildi.

To'rtinchidan, **tahliliy-qiyosiy metod** orqali romandagi ayol obrazlari bir-biri bilan solishtirildi. Masalan, Asol xola va Huri xola obrazlari onalik iztirobi va ruhiy bardoshlilik nuqtayi nazaridan, Marg'uba va Mahfuza obrazlari esa yosh ayol taqdiri, sabr va matonat jihatidan qiyosiy tahlil qilindi.

Tadqiqotda bevosita badiiy matn tahliliga tayangan holda xulosalar chiqarildi. Roman voqealarida ayol obrazlarining ruhiy holati faqat tashqi voqealar bilan emas, balki ichki iztirob, xotira, sukut, nutq, detal va muallif bayoni orqali ochilishi asosiy tahlil mezon sifatida olindi.

**Tahlil va natijalar.** Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, "Judolik diyori" romanida ayol obrazlari asarning markaziy psixologik qatlamini tashkil etadi. Romanda voqealar tizimi faqat tashqi hodisalar rivoji sifatida emas, balki qahramonlarning ruhiy holati, ichki kechinmalari va ma'naviy sinovlari bilan uzviy bog'liq holda shakllangan. Ayniqsa, ayol obrazlari orqali asarda insoniy iztirob, taqdir fojeasi, oila, jamiyat, sabr, sadoqat va ma'naviy bardoshlilik kabi tushunchalar chuqur badiiy talqin qilinadi.

Avvalo, romanda **onalar psixologiyasi** alohida o'rin tutadi. Asol xola obrazi bu jihatdan eng ta'sirchan obrazlardan biridir. Uning o'g'li Bahridinning to'y kuni olib ketilishi bilan bog'liq fojeali holat ona ruhiyatida chuqur iz qoldiradi. Bu voqea Asol xola uchun oddiy oilaviy yo'qotish emas, balki butun ruhiy dunyosini larzaga keltirgan fojidadir. Muallif uning iztirobini tashqi faryod, ruhiy sinish, xotira va sukut orqali tasvirlaydi. Asol xola obrazida ona qalbining farzand taqdiriga bog'liqligi, onalik muhabbatining cheksizligi va ayriliq iztirobining inson ruhiyatini qanday yemirishi badiiy ifodasini topadi.

Asol xola ruhiyatini ochishda muallif badiiy detal imkoniyatlaridan samarali foydalanadi. Masalan, "arvohkapalak" detali qahramon ruhiyatidagi bezovtalik, o'tmishdan uzila olmaslik, ichki qo'rquv va yolg'izlik holatini ramziy tarzda ifodalaydi. Bu detal oddiy tabiat yoki muhit tasviri emas, balki qahramon ichki olamini ochuvchi psixopoetik vosita sifatida namoyon bo'ladi. "Arvohkapalak" obrazida noaniqlik, qo'rquv,

bezovtalik va o'lim soyasi mujassam bo'lib, u Asol xola ruhiyatidagi iztirobning tashqi belgisi sifatida talqin qilinadi.

Shuningdek, "qoratal" detali ham Asol xola ruhiy holatini ochishda muhim ahamiyatga ega. Qoratal obrazi uning motami, umid va umidsizlik oralig'idagi holati, yolg'izlikka mahkumligi va vaqt o'tishi bilan chuqurlashib boradigan iztirobini ifodalaydi. Bu detal orqali muallif ayol qalbidagi ichki sinishni, ruhiy charchoqni va taqdir qarshisidagi ojizlikni badiiy ramzga aylantiradi. Demak, romanda badiiy detal ayol ruhiyatini ochishda muhim psixologik markaz vazifasini bajaradi.

Romandagi Salomxon aya obrazi ham o'ziga xos psixologik yuk tashiydi. U voqealarni chuqur anglaydigan, ayol taqdiridagi fojeani his qiladigan, lekin uni o'zgartirish imkoniyatidan mahrum bo'lgan avlod vakili sifatida namoyon bo'ladi. Salomxon aya obrazida hayot tajribasi, ruhiy kuzatuvchanlik, sukutdagi dard va ichki iztirob uyg'unlashgan. Bu obraz orqali muallif ayol ruhiyatining individual emas, balki avlodlar tajribasi bilan bog'liq ijtimoiy-psixologik qatlamini ochadi.

Huri xola obrazi esa fojeaga qaramay sinmaydigan, ichki og'riqni sabr, e'tiqod va mehr orqali yengishga intiladigan ayol sifatida tasvirlanadi. Uning ruhiyatida iztirob mavjud, biroq bu iztirob ochiq faryod yoki norozilikka aylanmaydi. Aksincha, u duo, ezgu tilak, mehr va iymon orqali ifodalanadi. Shu jihatdan Huri xola obrazi romanda ruhiy barqarorlik, ma'naviy kuch va iymon timsoli sifatida muhim o'rin tutadi.

Romanda yosh ayol-qizlar ruhiyati ham alohida badiiy qatlamni tashkil etadi. Marg'uba obrazi jim, ammo fojeali ayol taqdiri timsoli sifatida namoyon bo'ladi. Uning ruhiyatida ichki chidam, taqdirga qarshi sukutli kurash, sabr va hayot sinovlariga bardosh berish holatlari ustuvorlik qiladi. Marg'uba obrazining muhim jihati shundaki, u o'z dardini baland ovoz bilan ifodalamaydi, biroq uning sukuti ichki fojeaning kuchini yanada oshiradi. Badiiy matnda sukut ko'pincha so'zdan ham kuchliroq psixologik vosita sifatida xizmat qiladi.

Mahfuza obrazi ham sabr-matonat timsoli sifatida talqin qilinadi. Uning xarakterida ayolga xos bardosh, ma'naviy poklik va ichki kuch namoyon bo'ladi. Asal opaning turmushi buzilishi va befarzandlik iztiroblari esa ayol ruhiyatiga ijtimoiy va oilaviy omillar qanday ta'sir qilishini ko'rsatadi. Befarzandlik masalasi romanda faqat shaxsiy dard sifatida emas, balki ayolning jamiyatdagi mavqei, oila ichidagi ruhiy holati va o'zini anglash jarayoni bilan bog'liq murakkab psixologik muammo sifatida yoritiladi.

Tadqiqot natijalari yana shuni ko'rsatadiki, romanda ayollar nutqi qahramon ruhiyatini ochishda muhim vositadir. Ayollar nutqida samimiylilik, iztirob, ichki norozilik, sukut, mehr va ma'naviy qat'iyat seziladi. Nutq orqali qahramonning tashqi munosabati bilan birga uning ichki dunyosi ham ochiladi. Shu jihatdan ayollar nutqi asarda ko'p qatlamli vazifa bajaradi: u xarakter yaratadi, ichki konfliktni kuchaytiradi, voqealarning dramatik ta'sirini oshiradi va qahramon ruhiyatini chuqurlashtiradi.

“Judolik diyori” romanida ayol ruhiyatining tasviri o‘zbek adabiyotidagi badiiy psixologizm an‘analari bilan uzviy bog‘liq. O‘zbek nasrida Abdulla Qodiriy, Oybek, Abdulla Qahhor, Odil Yoqubov, O‘tkir Hoshimov kabi yozuvchilar ijodida inson ruhiyatini ochish, xarakter va muhit munosabatini ko‘rsatish, qahramon ichki dunyosini tasvirlash masalalari muhim o‘rin tutadi. Murodjon Mansurov ham “Judolik diyori” romanida ushbu an‘anani davom ettirgan holda ayol ruhiyatini ayriliq, fojea, sabr va ma‘naviy bardoshlilik orqali yoritadi.

Romanning muhim xususiyati shundaki, unda ayol obrazlari bir xil psixologik qolipda berilmaydi. Har bir obraz o‘zining individual ruhiy olamiga ega. Asol xola obrazida onalik iztirobi va ruhiy sinish yetakchi bo‘lsa, Huri xola obrazida iymon, bardosh va ma‘naviy kuch ustuvorlik qiladi. Salomxon aya obrazida hayotiy tajriba va sukutdagi dard ko‘zga tashlansa, Marg‘uba va Mahfuza obrazlarida yosh ayol taqdiri, ichki sabr va jamiyat bosimi bilan bog‘liq ruhiy holatlar ifodalanadi. Asal opa obrazida esa ayolning oilaviy taqdiri, befarzandlik va ruhiy iztirob masalalari yoritiladi.

Bu obrazlarning barchasida umumiy bir jihat mavjud: ular hayot sinovlari qarshisida ruhiy jihatdan sinovdan o‘tadi. Biroq har biri bu sinovga turlicha munosabat bildiradi. Shunday qilib, muallif ayol ruhiyatini ko‘p qatlamli va individual xususiyatlarga ega badiiy tizim sifatida yaratadi.

Romanda badiiy detalning ahamiyati ayniqsa katta. Dilmurod Quronov badiiy matn tahlilida detalning obraz yaratishdagi muhim vazifasini ta’kidlaydi. “Judolik diyori” romanida ham detal qahramon ruhiyatini ochuvchi asosiy vositalardan biri sifatida namoyon bo‘ladi. “Arvohkapalak” va “qoratal” kabi detallar Asol xola obrazining ichki drammatizmini kuchaytiradi. Bunday detallar tashqi muhit tasviri bilan ichki ruhiy holat o‘rtasida ko‘prik vazifasini bajaradi. Natijada qahramon ruhiyati bevosita izoh orqali emas, balki ramziy-psixologik tasvir orqali ochiladi.

Ayollar nutqining tasviri ham romanning muhim poetik jihatlaridan biridir. Nutq qahramon ruhiyatini ochishda eng tabiiy vositalardan sanaladi. Ayol qahramonlar nutqidagi hissiylik, iztirob, samimiylik, sukut va ichki og‘riq ularning psixologik holatini ifodalashga xizmat qiladi. Ba‘zan ayolning gapirmasligi, sukut saqlashi yoki qisqa javob berishi ham uning ruhiy holatini ko‘rsatadi. Shu ma’noda romanda sukut ham nutqiy vosita kabi badiiy vazifa bajaradi.

Maqola doirasidagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, “Judolik diyori” romanida ayol ruhiyatining tasviri faqat individual psixologiya doirasida qolmaydi. U ijtimoiy-falsafiy mazmun ham kasb etadi. Ayol obrazlari orqali jamiyatdagi adolatsizliklar, oilaviy munosabatlar, ijtimoiy bosim, qadriyatlar tizimi, insoniy mehr va ma‘naviy bardoshlilik masalalari yoritiladi. Bu esa roman obrazlar tizimini yanada murakkablashtiradi.

Ayol ruhiyatining bu tarzda tasvirlanishi roman g‘oyaviy-estetik mazmunini chuqurlashtiradi. Chunki muallif ayol obrazlari orqali inson taqdirining eng og‘riqli nuqtalariga murojaat qiladi. Ayriliq, yo‘qotish, farzand dardi, befarzandlik, ijtimoiy bosim

va sukutdagi iztirob kabi holatlar o'quvchida kuchli hissiy ta'sir uyg'otadi. Bu esa badiiy asarning estetik kuchini belgilaydi.

**Xulosa.** Murodjon Mansurovning "Judolik diyori" romanida ayollar ruhiyati chuqur badiiy-psixologik asosda tasvirlangan. Romandagi ayol obrazlari syujet rivojida ishtirok etuvchi oddiy personajlar emas, balki asarning g'oyaviy-estetik mazmunini ochib beruvchi muhim psixologik markazlardir. Ularning ruhiy olami orqali inson taqdiri, ayriliq, yo'qotish, sabr, sadoqat, onalik iztirobi, befarzandlik, ijtimoiy bosim va ma'naviy bardoshlilik kabi masalalar yoritiladi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, Asol xola obrazi onalik iztirobi va ruhiy sinishning, Huri xola obrazi sabr, e'tiqod va ma'naviy kuchning, Salomxon aya obrazi hayotiy tajriba va sukutdagi dardning, Marg'uba va Mahfuza obrazlari yosh ayol taqdiri va bardoshning, Asal opa obrazi esa oilaviy fojea va befarzandlik iztirobining badiiy ifodasi sifatida namoyon bo'ladi.

Romanda badiiy detal, nutq, sukut, psixologik portret, ichki kechinma va ramziy ifodalar ayol ruhiyatini ochuvchi asosiy vositalar sifatida qo'llangan. "Arvohkapalak" va "qoratal" kabi detallar qahramon ruhiyatini chuqurlashtirib, asarning psixologik ta'sirchanligini oshiradi. Ayollar nutqi esa ularning ichki dunyosi, hissiy holati va ma'naviy pozitsiyasini ochishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, "Judolik diyori" romani o'zbek nasrida ayol ruhiyatini badiiy-psixologik jihatdan chuqur aks ettirgan asarlardan biri sifatida baholanishi mumkin. Murodjon Mansurov ayol obrazlari orqali inson qalbining nozik va fojiviy qatlamlarini yoritishga erishgan. Mazkur roman ayol psixologiyasi, badiiy psixologizm va obraz poetikasini o'rganishda muhim adabiy manba bo'lib xizmat qiladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Гинзбург Л.Я. О психологической прозе. – Ленинград: Советский писатель, 1977. – 443 с.
2. Есин А.Б. Психологизм русской классической литературы: учебное пособие. – Москва: Флинта: Наука, 2011. – 176 с.
3. Qarang: Sulton I. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1980; Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent: Fan, 2007. – 268 b.; Sharafiddinov O. Ijodni anglash baxti. – Toshkent: Sharq, 2004. – 640 b.; Normatov U. Qalb inqilobi. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1986. – 351 b.